



Ma'lumotlarni saqlash




Ma'lumotlarni saqlash bizga nima uchun kerak? Biz qanday ma'lumotlarni saqlaymiz? Qog'oz va elektron axborot tashuvchilar deb nimaga aytilishini eslang.

Ba'zan keyinroq foydalanishimiz uchun ma'lumotlarni saqlab qo'yishimiz kerak bo'ladi. Saqlash usullari ma'lumotlardan qanday foydalanishni rejalashtirishimizga bog'liq.

qog'ozli tashuvchilarda saqlash



elektron tashuvchilarda saqlash



Barcha korxona va tashkilotlar faqat o'zlariga kerakli bo'lgan ma'lumotlarinigina saqlaydilar.

maktab

- o'quvchilar F.I.O.
- sinflar
- baholar
- o'qituvchilar F.I.O.

shifoxona

- bemorlar F.I.O.
- kasalliklar nomi
- dorilar
- shifokorlar F.I.O.



1. Ushbu ma'lumotlardan, odatda, qayerlarda foydalanish mumkinligini o'ylab ko'ring?

Berilgan so'zlardan foydalaning.

- mijozlarning ismi, ish haqi, pul omonati;
- mahsulotlar nomi, narxi, yaroqlilik muddati;
- kitoblar nomi, mualliflarining ismi, kitobxonlarning ismi, kitobning berilish muddati;
- taomlar nomi, narxi, tarkibi, fotosurati.



Berilgan so'zlar:

kutubxona

qahvaxona

do'kon

bank



2. Madina – sinf sardori. U sinfdoshlarini tug'ilgan kuni bilan tabriklashni tashkil qilmoqchi. Unga qanday ma'lumotlar kerak bo'lishi mumkin?





3. Veterinariya klinikasida bugun emlangan barcha hayvonlar ro'yxatga olindi. Jadvaldagi ma'lumotlarni o'rganing.

	egasi	boqilayotgan hayvon	ismi	yoshi	emlanganligi haqida belgi
1	Madina	kuchuk	Olapar	3	✓
2	Akmal	mushuk	Mosh	1	✓
3	Umida	mushuk	Qorapanja	2	✓
4	Sardor	to'ti	Kelli	5	✓
5	Aziza	kuchuk	Bim	6	✓
6	Jasur	mushuk	Qoravoy	2	✓

Jadvalda berilgan ma'lumotlar yordamida axborotni toping.

- Bugun jami nechta hayvon emlandi?
- Bugun qanday hayvonlar eng ko'p emlandi?
- Bugun qanday hayvonlar eng kam emlandi?
- Qaysi hayvonning yoshi eng katta, qaysi hayvonning yoshi eng kichik?



4. Savollarga javob bering.

- **Axborotni** qanday ko'rinishda **saqlash** qulay?
- Qog'ozli va elektron axborot tashuvchilarga oid qanday misollarni eslay olasiz?
- Sinfdagi sportchilar ro'yxatini tuzish uchun qanday ma'lumotlarni bilish kerak bo'ladi?

